

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI
KOMPYUTER INJINIRING FAKULTETI
KOMPYUTER TIZIMLARI KAFEDRASI

5330500-“Kompyuter injiniring” yo’nalishi bo’yicha bakalavr akademik
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: EHM da ikkili-o’nli sanoq sistemasida amallar bajarilishining
jarayonini ko’rsatuvchi dasturiy ta’minotni yaratish

Kafedraning “__” _____ 2019 y.dagi

№__ sonli yig’ilishida muhokama
qilingan va himoyaga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri:

_____.

“_____” _____ 2019 y

.
Bajardi: _____

4 - kurs talabasi _____

.
Ilmiy rahbar _____

MUNDARIJA

	bet
KIRISH	3
I BOB SONLI AXBOROTLARNI KODLASH VA IFODALASH USULLARI.....	6
1.1 Axborotni kodlash va fizik ifodalash usullari.....	6
1.2 Sonlarni qo'zg'almas vergulli shaklda tasvirlash.....	10
1.3 Sonlarni qo'zg'aluvchan vergulli shaklda tasvirlash.....	12
1.4 Sonlarni ifodalash usullari.....	13
II BOB EHM DA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISHDA SONLARNI KODLASH QOIDALARI	18
2.1 Asosiy tushunchalar.....	18
2.1 To'g'ri kod	19
2.2 Teskari kod	20
2.3 Qo'shimcha kod	22
2.4 Modifikatsiyalashgan kod	23
2.5 EHM da arifmetik amallar bajarilishi	26
III BOB SONLARNI KODLASH QOIDALARI ASOSIDA IFODALOVCHI DASTURIY TA'MINOT	29
3.1 Dasturiy ta'minotning tasnifi	29
3.2 Dasturiy ta'minotdan foydalanish tartibi	35
3.3 O'quv binosidan tinchlik va harbiy vaziyatlarda talabalarni evakuatsiya qilish	41
XULOSA	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	49
1-ILOVA Dasturning ishlash jarayoni	50
2-ILOVA Dasturning kodi	52

KIRISH

Ushbu bitiruv ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son hamda 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son qarorilarida belgilangan vazifalarni, ya'ni o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovasion fikrlashga yo'naltiradigan, o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishi bilan dolzarb hisoblanadi.

Jumladan, ushbu bitiruv ishida Kompyuter arxitekturasini fani bo'yicha elektron darsga ilova sifatida EHM da ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarishni namoish qiluvchi yangi axborot texnologiyalardan foydalanib o'qitishni ko'rsatuvchi dasturiy vosita yaratish masalasi qaralgan.

Zamonaviy etapda ommani axborotlashtirish va ta'limning rivojlanish strukturasida ko'pgina an'anaviy usuldan vos kechib, yangi usullarga asoslangan ta'lim oluvchi, o'qituvchi bilan kompyuter orqali o'rganishi. Bu ta'lim ta'lim binosidan ancha uzoqda bo'ladi. Buni biz masofaviy ta'lim deb nomlanadi.

Masofaviy talim atamasini ta'lim jarayoni muammosini yo'tilgan foydalanuvchi bilam hal qiluvchi texnologiyalar majmui deb tushunishadi. Masofaviy ta'lim tizimida ma'ruzalarning elektron varianti muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy informasion texnologiyalar ishlatilishi sharofati bilan o'qituvchi tomonidan berilgan an'anaviy ta'lim berish usulidagi muammolarni echish qobiliyatiga ega. Gipermurojat bilan matnni sintezlash pedagogik koplektni tashkil etib, an'anaviy usul bilan taqqoslaganda ancha o'zlashtirish jarayoni engillashtiradi.[5]

Ishning dolzarbligi. Masofaviy ta'lim internetning tarqalishi tufayli yangi o'qitish instrumentini rivojlantirish yangi bosqichiga keldi. Endi tarmoq texnologiyasi bilan har qanday ma'lumotga momental ruxsatni tashkil qilish mumkin.

EHM hisoblash ishlarini barcha arifmetik amallardan foydalanib bajarsa, ularni bajarish uchun ko'plab elementlar va qurilmalar talab etiladi. Bu holda EHM ning texnik tizimi murakkablashadi va ishonchlilik darajasi ham yetarli darajada bo'lmaydi. EHM texnik tomondan eng oson bajaradigan amal – bu qo'shish amalidir. Mahsus kodlarni qo'llash natijasida ayirish amali qo'shish amali yordamida bajariladi. Shuningdek, ko'paytirish amali qo'shish amali orqali bajarilsa, bo'lish amali esa ayirish amali (ayirish amali qo'shish amali orqali bajariladi) orqali bajarilsa, u holda EHM da barcha arifmetik amallarni faqat qo'shish amali orqali bajarsa bo'ladi

Ushbu bitiruv ishida elektron darsliklarga ilova sifatida EHM da sonlarni kodlash qoidalarini asosida ishlaydigan dasturiy vosita yaratish masalasi qaralgan.

Tadqiqot maqsadi – Hozirda ta'lim jarayonini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitish tizimiga qo'llamoqda. O'qitish tizimlari avtomatlashtirilmoqda. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida fan sohalariga oid elektron darsliklar, elektron darslar yaratilmoqda. Elektron darsliklar masovaviy o'qitish tizimida asosiy o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi. Oddiy darsliklar bu imkoniyatni bermaydi. Elektron darsliklarni tarmoqdan turib ham foydalanish mumkin. Ushbu ishda Elektron darslikka ilova sifatida sonlarni kodlash qoidalarini namoish qiluvchi dasturiy ta'minot yaratishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar yechilishi kerak:

Ushbu malakaviy bitiruv ishda quyidagi natijalar olingan:

- ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallarni bajarish qoidalarini organilgan;
- EHM da da ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarilishini namoish qiluvchi dasturiy vosita yaratilgan;

- ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarishi bo'yicha ko'rgazmali qurollar yaratilgan;
- ikkili-o'nli sanoq sistemasi qoidalarini tadbig'ni ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot yaratilgan;

Tadqiqot obyekti – EHM da sonlarni kodlash jarayonini ko'rsatuvchi algoritm va dasturiy vosita yaratish.

Tadqiqot usullari. Bitiruv ishida diskret matematika usullari, dasturlash texnologiyalari usullaridan foydalanildi.

- **Ishning amaliy ahamiyati.** Bu malakaviy bitiruv ishda Hisoblash tizimlarining axborot asoslari fanini o'qitishda talabalar va o'qituvchlar uchun zamonaviy information texnologiyalardan foydalanib ko'rgazmali qurollar yaratilgan. Bu ishda sonlarni kodlashtirishning moxiyava va EHM da bajarilish jarayoni tushuntirilgan. Dasturdan “Informatika va axborot texnologiyalar” mutaxassisligining talabalarini o'qitishda, hisoblash tizimlarining axborot asoslari fanidan “Axborotlarni kodlashtirish” mavzusi bo'yicha dasturiy vosita sifatida, o'qituvchini tayyorlanishida, boshqa fanlar bo'yicha yangi loyihalarni ishlab chiqish uchun uslubiy ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu malakaviy bitiruv ishi kirish qismi, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ishning maqsadi berilgan.

1-bob ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarishga bag'shlangan.

2-bobda ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarishda qo'llanilgan dasturiy ta'minot stukturasi berilgan.

3-bobda ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarishni vizuallashtiruvchi

Ilovada “EHM da ikkili-o'nli sanoq sistemasida amallar bajarilish” dasturiy vosita matni havola etiladi.

Xulosa qismida qilingan ishlar va olingan natijalar tahlil qilingan.

.

1. BOB. SONLI AXBOROTLARNI KODLASH VA IFODALASH USULLARI

1.1. Axborotlarni kodlash va fizik ifodalash usullari

Informasiya ishlashida qulaylik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida obyekt nomini shartli belgi bilan almashtirish uchun ***kodlash sistemasi*** qo'llaniladi.

Kodlash sistemasi - obyektlarni kodli belgilash qoidalari majmuidir. Kod harf, raqam va boshqa simvollaridan tashkil topgan alfavit asosida quriladi. Kodni xarakterlovchi tushunchalar - uning ***uzunligi*** va ***strukturasidir***. ***Kod uzunligi*** koddagi o'rinlar (pozitsiyalar) sonini, ***kod strukturasini*** - kodda simvollarining joylashish tartibini belgilaydi[4-6].

Obyektni kodli belgilash muolajasi ***kodlash*** deb ataladi.

Kodlash sistemasida ishlatiluvchi quyidagi ikkita guruh usullarini ko'rsatish mumkin:

- ***kodlashning klassifikasion sistemasi;***
- ***kodlashning ro'yxatga oluvchi sistemasi.***

1.7-rasmda turli usullardan foydalanuvchi kodlash sistemasi keltirilgan.


Klassifikasion kodlash.

Klassifikasion kodlash obyektlar klassifikasiyalanganidan so'ng ishlatiladi. Ketma-ket va parallel kodlash farqlanadi.

Ketma-ket kodlash iyerarxiyalik klassifikasion strukturalar uchun ishlatiladi. Uning mohiyati quyidagicha: avval 1-bosqichning yuqori guruhi kodi, keyin 2-bosqich guruhi kodi, so'ngra 3-bosqich guruhi kodi va h. yoziladi. Natijada, har bir xonasi iyerarxiyalik strukturaning har bir bosqichida ajratilgan guruh xususidagi informatsiyaga ega bo'lgan kodlar kombinatsiyasi hosil bo'ladi. Kodlashning ketma-ketli sistemasi klassifikatsiyasining iyerarxiyalik sistemasiga oid afzalliklar va kamchiliklarga ega[4-6].

Parallel kodlash klassifikatsiyaning fasetli sistemasi uchun ishlatiladi. Ushbu kodlashning mohiyati quyidagicha: barcha fasetlar mustaqil ravishda kodlanadi.

har faset qiymati uchun kod xonalarining ma'lum soni ajratiladi. Parallel kodlash klassifikasiyaning fasetli sistemasiga oid afzalliklar va kamchiliklarga ega.



1.1-rasm. Kodlash sistemasi

Ro'yxatga oluvchi (registratsion) kodlash. Ushbu kodlash obyektlarni ma'nodosh identifikatsiya uchun ishlatiladi va ularni oldindan klassifikatsiya talab qilinmaydi. Tartibli va qator tartibli sistemalar farqlanadi.


Kodlashning **tartibli** sistemasida obyektlar natural qatordagi sonlar yordamida ketma-ket nomerlanadi. Bu nomerlash tasodifiy yoki obyektlar oldindan tartiblanganidan (masalan, alfavit bo'yicha) so'ng amalga oshirilishi mumkin. Kodlashning bu sistemasi obyektlar soni katta bo'lmagan holda ishlatiladi.

Kodlashning **qator-tartibli** sistemasida qatorni tashkil etuvchi obyektlar guruhi oldindan ajratiladi, so'ngra har bir qatorga nomer beriladi. Kodlashning bu sistemasi guruh soni cheklangan holda ishlatiladi[4-6].

EHM da masala yechilayotganda barcha matematik kattaliklar erkli va erksiz o'zgaruvchilar - turli tabiatli fizik kattaliklar orqali ifodalanadi. Bu fizik kattaliklar - elektr, magnit, optika va h. signallari - **mashina o'zgaruvchilari** deb ataladi.

Hozirgi zamon EHMLarida informaciyaning ikki xil - **uzlukli** va **uzluksiz** ifodalanishi qo'llaniladi.

Informasiyaning uzlukli shaklda ifodalanishida matematik kattalikning har oniy qiymati bir necha mashina o'zgaruvchilari orqali ifodalanadi. Mashina o'zgaruvichlarining ahamiyati ularning vaqt yoki fazoda tutgan o'rinlariga nisbatan aniqlanadi. Odatda matematik o'zgaruvchilarni uzlukli shaklda ifodalash uchun pozision koddan (ko'pincha, ikkili koddan) foydalaniladi.




1.2-rasm. O'zgaruvchining vaqt bo'yicha uzlukli kodlar kombinasiyasi ko'rinishida ifodalanishi.

Bu koddagi xona raqamlari qiymati faqatgina mos mashina o'zgaruvchilarining berilgan vaqt onida (ketma-ket kod) yoki fazoning berilgan joyida (parallel kod) borligi («1») yoki yo'qligi («0») orqali tavsiflanadi. Odatda informaciyaning

uzlukli shakldagi ifodalanishida mashina o'zgaruvchisi sifatida elektr potentsiallari yoki impulslar ishlatiladi. 1.2-rasmda $y(x)$ matematik o'zgaruvchining vaqt bo'yicha ketma-ket (yoki parallel) uzlukli kodlar kombinasiyasi ko'rinishida ifodalanish misoli keltirilgan[4-6].

1.2rasm «b» da argument $x=5$ da o'zgaruvchi $u(x)$ qiymatining ketma-ket kodi tasvirlangan. 1.2-rasm «v» da x ning o'sha qiymatidagi $u(x)$ qiymatining parallel kodi tasvirlangan.

O'zgaruvchilarni uzluksiz shaklda ifodalashda matematik kattalikning har bir oniy qiymatiga mos mashina o'zgaruvchisining mutanosib oniy qiymati to'g'ri keladi, ya'ni matematik kattalikni miqdoriy baholash uchun mos mashina o'zgaruvchisining miqdoriy bahosidan foydalaniladi. Mashina o'zgaruvchisining matematik o'zgaruvchi o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan har qanday o'zgarishi zarur mutanosiblikning buzilishiga sabab bo'ladi va o'zgaruvchilarning ifodalanishi aniqligiga ta'sir etadi. 1.2-rasmda oldingi misoldagi matematik o'zgaruvchi $u(x)$ ning ifodalanishi keltirilgan. 1.9-rasm «b» da vaqt bo'yicha uzluksiz o'zgaruvchi kuchlanishlar U_y va U_x - mashina o'zgaruvchilari keltirilgan. Bular orasidagi kerakli bog'lanishni 1.3-rasm «v» dagi mos hisoblovchi blok amalga oshiradi.



1.3-rasm. O'zgaruvchining vaqt bo'yicha uzluksiz shaklda ifodalanishi.

Matematik va mashina o'zgaruvchilarining joriy qiymatlari orasidagi kerakli mutanosiblik miqyos koeffitsiyenti m ga ham bog'liq[4-5].

$$U_x = m_x \cdot x,$$

$$U_y = m_y \cdot y$$

Xususiylas holda, matematik y_{max} va U_{Ymax} o'zgaruvchilarning eng katta qiymatlari son jihatdan teng bo'lganda miqyos koeffitsiyentlari birga teng bo'lishi mumkin: $m_x=1$; $m_y=1$.

Informasiyaning uzlukli shaklda ifodalanishidan va uning algoritmik ishlanishi usulidan foydalanuvchi elektron hisoblash mashinalari raqamli hisoblash mashinalari (RHM) deb ataladi. Ular universal, bu so'zning to'la ma'nosida, chunki ular yechadigan matematik masala qanday ilk shaklda bo'lmasin, pirovardida oddiy arifmetik amallariga, odatda ikkili kodlarni qo'shish va siljitish amallariga keltiriladi. hisoblash algoritmining bajarilishi hisoblash natijasi shakllanishining chekli vaqtiga doimo bog'liq bo'lib, bu vaqt oddiy ketma-ket amallar soni va ularning hisoblanish vaqti bilan aniqlanadi.

Shuning uchun RHM da muayyan masalaning yechilishi vaqti mos hisoblash algoritmiga bog'liq[4-5].

Informasiyaning uzluksiz shaklda ifodalanishidan va uning analitik ishlanish usulidan foydalanuvchi elektron hisoblash mashinalari analog hisoblash mashinalari (AHM) deb ataladi. AHM da ixtiyoriy oddiy amal - qo'shish, ko'paytirish, integrallash va h. - mashinaning alohida oddiy blokida bajarilib, har bir blokda kirish yo'li va chiqish yo'li fizik kattaliklar, masalan, kuchlanishlar orasidagi analitik bog'lanish yechilishi zarur bo'lgan analitik bog'lanishga o'xshashdir. AHM da RHM dagidek, murakkab matematik amallarni oddiy arifmetik amallar bilan almashtirish talab etilmaydi. AHM da matematik kattaliklar sonlar orqali emas, balki muayyan fizik o'zgaruvchilar, masalan, burilish burchaklari, tok kuchlanishi, suyuqliklar sathi va h. orqali ifodalanadi.

2.1. Asosiy tushunchalar

Raqamli hisoblash mashinalariga (RHM) uzatiladigan va qayta ishlanadigan obyektlar sifatida diskret axborotlarni qaraymiz. Ularni tasvirlash uchun alfavit usulidan foydalanamiz. Alfavit deb chekli simvollar (harflar, raqamlar, belgilar) naboriga aytiladi.

Ma'lumotlarni hosil qilishda va uzatishda ishlatiladigan simvollar (harflar, raqamlar, belgilar) to'plami alfavitlarga misol bo'la oladi.

Alfavit naboridan (tarkibidan) olingan simvollarning ixtiyoriy chekli ketma-ketligi – ushbu alfavitdagi so'z deyiladi. Masalan lotin harflar va raqamlarini o'z ichiga olgan alfavitdan foydalanib quyidagi so'zlarni tuzish mumkin: 1999, AAA, V1999, PASCAL, KITOB.

Biror alfavitda berilgan axborotni, qulay yo'l bilan EHM ga moslashtirish axborotni kodlashtirish deyiladi[4-6].

EHM hisoblash ishlarini barcha arifmetik amallardan foydalanib bajarsa, ularni bajarish uchun ko'plab elementlar va qurilmalar talab etiladi. Bu holda EHM ning texnik tizimi murakkablashadi va ishonchlilik darajasi ham yetarli darajada bo'lmaydi. EHM texnik tomondan eng oson bajaradigan amal – bu qo'shish amaliidir.. Mahsus kodlarni qo'llash natijasida ayirish amali qo'shish amali yordamida bajariladi. Shuningdek, ko'paytirish amali qo'shish amali orqali bajarilsa, bo'lish amali esa ayirish amali (ayirish amali qo'shish amali orqali bajariladi) orqali bajarilsa, u holda EHM da barcha arifmetik amallarni faqat qo'shish amali orqali bajarsa bo'ladi.

Biror sonni oson, qulay yo'l bilan mashinaga moslash sonni **kodlash** deb yuritiladi.

Ikkili-o'nli sanoq sistemasi EHMda sonlarni ifodalashda va ular ustida arifmetik amallar bajarishda keng qo'llaniladi. Ikkili-o'nli sanoq sistemasida arifmetik amallarni bajarish usuli ikkili arifmetika qoidalariga asoslansada, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

2.2. To'g'ri kod

To'g'ri kod sonlarni ko'paytirish va bo'lishda ishlatiladi.

Agar x ikkili son butun ko'rinishda berilsa, ya'ni $x = x_1x_2...x_n$, u holda uning to'g'ri kodi

$$[X]_{\text{tyr}} = \begin{cases} 0.x_1...x_n, \text{ arap } x \geq 0 \\ 1.x_1...x_n, \text{ arap } x < 0 \end{cases}$$

aniqlanadi.

Misol №1.

$$x = 10101; [x]_{\text{myz}} = 0,10101;$$

$$x = -1101; [x]_{\text{myz}} = 1,1101;$$

Agar x ikkili son kasr ko'rinishida, ya'ni

$$x = x_2 \dots x_n, \quad a_1 a_2 \dots a_m$$

бутих *касп* ,

U holda uning to'g'ri kodi

$$[x]_{\text{tyr}} = \begin{cases} 0.x_1 x_2 \dots x_n, a_1 a_2 \dots a_m, & \text{agar } x \geq 0 \\ 1.x_1 x_2 \dots x_n, a_1 a_2 \dots a_m, & \text{agar } x < 0 \end{cases}$$

Misol №2.

$$x = 0,101; [x]_{\text{myz}} = 0.0,101;$$

$$x = 110101; [x]_{\text{myz}} = 0.110,101;$$

$$x = -0,110; [x]_{\text{myz}} = 1.0,110;$$

$$x = -110,1011; [x]_{\text{myz}} = 1.110,1011.$$

Agar x o'nli son bo'lib, u butun $x = x_1 x_2 \dots x_n$ ko'rinishida berilsa, uning to'g'ri kodi

$$[x]_{\text{tyr}} = \begin{cases} 0.x_1 x_2 \dots x_n, & \text{agar } x \geq 0 \\ 1.x_1 x_2 \dots x_n, & \text{agar } x < 0 \end{cases}$$

aniqlanadi.

Misol №3.

$$x = 0,1968;$$

$$[x]_{\text{myz}} = 0.0,1968;$$

$$x = 1441,969; [x]_{\text{myz}} = 0.1441,969;$$

$$x = -0,495; [x]_{\text{myz}} = 1.0,495;$$

$$x = -495,696; [x]_{\text{myz}} = 1.495,696.$$

Eslatma. Agar x soni 3 lik, 5 lik, 8 lik, 16 lik, 32 lik sanoq sistemalarida berilsa, yuqorida keltirilgan qoidalar yordamida to'g'ri kodda yoziladi.

Demak, x son musbat bo'lsa, uning to'g'ri kodida chap tomonida nol («0.») yozilib, «.» (nuqta) bilan ajratiladi. Agar x manfiy son bo'lsa, u holda uning to'g'ri kodida chap tomonda bir («1») yozilib, «.» bilan ajratiladi[5-6].

2.3. Teskari kod.

Teskari kod ayirish amalini qo'shish amali orqali ifodalash uchun qo'llaniladi.

Agar x ikkili butun son ko'rinishida berilsa, uning teskari kodi

$$[x]_{mec} = \begin{cases} 0.x_1x_2\dots x_n, & \text{agar } x \geq 0 \\ 1.\bar{x}_1\bar{x}_2\dots\bar{x}_n, & \text{agar } x < 0 \end{cases} \quad (1)$$

aniqlanadi. Bu yerda $\bar{x}_i = d - x_i, d = 1$;

Misol №4.

$$\begin{aligned} x = 1101; [x]_{mec} &= 0.1101; \\ x = -1101; [x]_{mec} &= 1.0010; \end{aligned}$$

Agar x butun o'nli son bo'lsa, uning teskari kodi (1) ko'rinishida aniqlanadi va $\bar{x}_i = d - x_i$ da $d = 9$ bo'ladi. Xuddi shuningdek, $d = 2, d = 4, d = 7$ bo'lganda mos ravishda uchlik, beshlik, sakkizlik sanoq sistemasidagi x sonning teskari kodlari (1) ko'rinishda aniqlanadi.

Misol №5.

$$\begin{aligned} x = 9760_{10}; [x]_{mec} &= 0.9760; l = 9; \\ x = -8979_{10}; [x]_{mec} &= 1.1020; l = 9; \\ x = 6554_8; [x]_{mec} &= 0.6554; l = 7; \\ x = -6554_8; [x]_{mec} &= 1.1223; l = 7; \\ x = 4324_5; [x]_{mec} &= 0.4324; l = 4; \\ x = -4324_5; [x]_{mec} &= 1.0120; l = 4; \\ x = 1212_3; [x]_{mec} &= 0.1212; l = 2; \\ x = -1212_3; [x]_{mec} &= 1.1010; l = 2. \end{aligned}$$

Agar x ikkili kasr son bo'lsa, uning teskari kodi

$$[x]_{mec} = \begin{cases} 0.x_1x_2\dots x_n, a_1a_2\dots a_m, & \text{agar } x \geq 0 \\ 1.\bar{x}_1\bar{x}_2\dots\bar{x}_n, \bar{a}_1\bar{a}_2\dots\bar{a}_m, & \text{agar } x < 0 \end{cases} \quad (2)$$

aniqlanadi. Bu yerda $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \bar{a}_i = \alpha - a_i, \alpha = 1$

Misol №6.

$$\begin{aligned}
x &= 110,011; [x]_{mec} = 0.110,011; \\
x &= -101,011; [x]_{mec} = 1.010,100; \\
x &= 0,110; [x]_{mec} = 0.0,110; \\
x &= -0,110; [x]_{mec} = 1.1,001.
\end{aligned}$$

Agar x o'nli kasr son shaklida berilgan bo'lsa, uning teskari kodi ham (2) ko'rinishda aniqlanadi va $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \bar{a}_i = \alpha - a_i$ da $\alpha = 9$ deb olinadi. Shuningdek, $\alpha = 2, \alpha = 4, \alpha = 7$ deb olib, mos ravishda 3 lik, 5 lik, 8 lik sanoq sistemalarida berilgan x kasr sonning teskari kodlari ham (2) ko'rinishda aniqlanadi.

Misol №7.

$$\begin{aligned}
x &= 97,59_{10}; [x]_{mec} = 0.97,59; & \alpha &= 9; \\
x &= -97,59_{10}; [x]_{mec} = 1.02,40; & \alpha &= 9; \\
x &= 17,67_8; [x]_{mec} = 0.17,67; & \alpha &= 7; \\
x &= -17,67_8; [x]_{mec} = 1.60,10; & \alpha &= 7; \\
x &= 43,125; [x]_{mec} = 0.43,12; & \alpha &= 4; \\
x &= -43,125; [x]_{mec} = 1.01,32; & \alpha &= 4; \\
x &= 12,21_3; [x]_{mec} = 0.12,21; & \alpha &= 2; \\
x &= -12,21; [x]_{mec} = 1.10,01; & \alpha &= 2;
\end{aligned}$$

Eslatma. Musbat sonlar (2, 3, 5, 8, 10 lik) teskari kod ko'rinishda tasvirlanmaydi. Shuning uchun yuqoridagi qoidalarda $[x]_{mec} = [x]_{myz}$ deb olinadi. Chunki musbat sonlar to'g'ri kodda tasvirlanadi.

2.4. Qo'shimcha kod.

Qo'shimcha kod ham teskari kod kabi ayirish amalini qo'shish amali orqali ifodalash uchun qo'llaniladi.

Agar x ikkili butun son bo'lsa, u holda uning qo'shimcha kodi

$$[x]_{rei} = \begin{cases} 0.x_1x_2...x_n, & \text{agar } x \geq 0 \\ 1.\bar{x}_1\bar{x}_2...\bar{x}_n + 0,00...1 & \text{agar } x < 0 \end{cases} \quad (3)$$

aniqlanadi.

Misol №8.

$$x = 10101; [x]_{kyu} = 0.10101;$$

$$x = -10101; [x]_{kyu} = 1.01010 + \underset{n=5}{00001} = 1.01011;$$

Agar x o'nli butun son bo'lsa, uning qo'shimcha kodi (3) ko'rinishda $\overline{n+1} = \overline{n1}$ uchun aniqlanadi. Shuningdek, $\alpha=2, \alpha=4, \alpha=7$ uchun mos ravishda 3 lik, 5 lik, 8 lik sanoq sistemalarida berilgan butun x sonining qo'shimcha kodlari ham (3) ko'rinishda aniqlanadilar[4-6].

Agar x ikkili kasr son bo'lsa u holda uning qo'shimcha kodi

$$[x]_{kyu} = \begin{cases} 0.x_1x_2...x_n, a_1a_2...a_m, \text{ agar } x \geq 0 \\ 1.\bar{x}_1\bar{x}_2...\bar{x}_n, a_1a_2...a_m + 0,00...1, \text{ agar } x < 0 \end{cases} \quad (4)$$

aniqlanadi.

Misol №9.

$$U(\bar{n}) = \overline{n+1} = 101.1101; [x] = 0.101 1101;$$

$$x, x_1, x_2, x_3, \dots, x_n, Y = -10 101 : [x] = 1.01 010 + 0.001 = 1.01 011;$$

$$x = 0.110; [x]_{kyu} = 1.1.010;$$

$$x = -0.110; [x]_{kyu} = 1.1.001 + 0.001 = 1.1.010;$$

Agar $x_i = \alpha - x_i$ $a_i = \alpha - a_i$ da $\alpha=2$ $\alpha=4$ $\alpha=7$ $\alpha=9$ deb olinsa mos ravishda x kasr soning 3lik 5lik pa 8lik va 10 lik sanoq sistemalaridagi qo'shimcha kodlari ham (4) ko'rinishda aniqlanadi.

Misol №10.

$$\begin{aligned}
x &= 97,86_{10}; [x]_{kyu} = 0.97,86, \quad \alpha = 9; \\
x &= -97,86_{10}; [x]_{kyu} = 1.02, \underline{13} + 0, \underline{01} = 1.02,14; \quad \alpha = 9; \\
x &= 67,35_8; [x]_{kyu} = 0.67,35; \quad \alpha = 7; \\
x &= -67,35_8; [x]_{kyu} = 1.10, \underline{42} + 0, \underline{01} = 1.10,43; \quad \alpha = 7; \\
x &= 344,02_5; [x]_{kyu} = 0.344,02; \quad \alpha = 4; \\
x &= -344,02_5; [x]_{kyu} = 1.100, \underline{42} + 0, \underline{01} = 1.100,43; \quad \alpha = 4; \\
x &= 122,002_3; [x]_{kyu} = 0.122,002; \quad \alpha = 2; \\
x &= -122,002_3; [x]_{kyu} = 1.100, \underline{220} + 0, \underline{001} = 1.100,221; \quad \alpha = 2;
\end{aligned}$$

2.5. Modifikasiyalashgan kod

Modifikasiyalashgan teskari va qo'shimcha kodlar ayirish orqali ifodalash uchun qo'llaniladi va teskari hamda qo'shimcha kodlardan sonning ishorasini aniqlashda nuqta («.») dan chap tomonda bitta raqam («0»→»+», «1» → «-»)

emas, balki ikkita raqam yozilishi bilan farq qiladi.

Agar x musbat son bo'lsa nuqtaning chap tarafiga ikkita «00» va agarda x manfiy son bo'lsa ikkita «11» yoziladi.

a) Modifikasiyalashgan teskari kod. Agar x ikkili butun son bo'lsa, uning modifikasiyalashgan teskari kodi

$$[x]_{mec}^m = \begin{cases} 00.x_1x_2...x_n, & \text{agar } x \geq 0 \\ 11.\bar{x}_1\bar{x}_2...\bar{x}_n, & \text{agar } x < 0 \end{cases} \quad (5)$$

aniqlanadi. Bu yerda $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \alpha = 1$.

Misol №11.

$$x = 10110; [x]_{mec}^m = 00.10110;$$

$$x = -10110; [x]_{mec}^m = 11.01001;$$

Agar $\bar{x}_i = \alpha - x_i$ da $\alpha = 2, \alpha = 4, \alpha = 7, \alpha = 9$ deb olinsa, mos ravishda 3 lik, 5 lik, 8 lik va 10 lik sanoq sistemalarida x butun sonning modifikasiyalashgan teskari kodlari (5) yordamida aniqlanadi.

Misol №12.

$$x = 876_{10}; [x]_{mec}^m = 00.876, \quad \alpha = 9;$$

$$x = -876_{10}; [x]_{mec}^m = 11.123, \quad \alpha = 9;$$

$$x = 676_8; [x]_{mec}^m = 00.676, \quad \alpha = 7;$$

$$x = -676_8; [x]_{mec}^m = 11.101, \quad \alpha = 7;$$

$$x = 342_5; [x]_{mec}^m = 00.342, \quad \alpha = 4;$$

$$x = -342_5; [x]_{mec}^m = 11.102, \quad \alpha = 4;$$

$$x = 201_3; [x]_{mec}^m = 00.201, \quad \alpha = 2;$$

$$x = -201_3; [X]_{mec}^m = 11.021, \quad \alpha = 2;$$

Agar x ikkili kasr son blsa, uning modifikasiyalashgan teskari kodi

$$[x]_{mec}^m = \begin{cases} 00.x_1x_2...x_n, a_1a_2...a_m, & \text{agar } x \geq 0 \\ 11.\bar{x}_1\bar{x}_2...\bar{x}_n, \bar{a}_1\bar{a}_2...\bar{a}_m, & \text{agar } x < 0 \end{cases}$$

aniqlanadi. Bu yerda $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \bar{a}_i = \alpha - a_i, \alpha = 1$.

Misol №13.

$$x = 1011,011; [x]_{mec}^m = 00.1011,011;$$

$$x = -110,011; [x]_{mec}^m = 11.001,100;$$

Agar $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \bar{a}_i = \alpha - a_i, \quad \text{da } \alpha = 2, \alpha = 4, \alpha = 7, \alpha = 9$ deb olinsa, u holda mos ravishda x kasr sonning 3 lik, 5 lik, 8 lik, 10 lik sanoq sistemalaridagi modifikasiyalashgan teskari kodlari ham (5) yordamida aniqlanadi[4-5].

Misol №14.

$$x = 876_{10}; [x]_{mec}^m = 00.876, \quad \alpha = 9;$$

$$x = -876_{10}; [x]_{mec}^m = 11.123, \quad \alpha = 9;$$

$$x = 676_8; [x]_{mec}^m = 00.676, \quad \alpha = 7;$$

$$x = -676_8; [x]_{mec}^m = 11.101, \quad \alpha = 7;$$

$$x = 342_5; [x]_{mec}^m = 00.342, \quad \alpha = 4;$$

$$x = -342_5; [x]_{mec}^m = 11.102, \quad \alpha = 4;$$

$$x = 201_3; [x]_{mec}^m = 00.201, \quad \alpha = 2;$$

$$x = -201_3; [X]_{mec}^m = 11.021, \quad \alpha = 2;$$

b) Modifikasiyalashgan qo'shimcha kod. Agar x ikkili butun son bo'lsa, uning modifikasiyalashgan qo'shimcha kodi

$$[x]_{kyuu}^m = \begin{cases} 00.x_1x_2...x_n, & \text{agar } x \geq 0 \\ 11.\frac{\bar{x}_1\bar{x}_2...\bar{x}_n}{n} + \frac{00...1}{n}, & \text{agar } x < 0 \end{cases} \quad (6)$$

aniqlanadi. Bu yerda $\bar{x}_i = \alpha - x_i$, $\alpha = 1$,

Misol №15.

$$x = 10110; [x]_{kyuu}^m = 00.10110;$$

$$x = -10110; [x]_{kyuu}^m = 11.\frac{01001}{5} + \frac{00001}{5} = 11.01010;$$

Agar $\bar{x}_i = \alpha - x_i$, $\text{da } \alpha = 2, \alpha = 4, \alpha = 7, \alpha = 9$ deb olinsa, u holda mos ravishda x butun sonning 3 lik, 5 lik 8 lik va 10 lik sanoq sistemalaridagi modifikasiyalashgan qo'shimcha kodlari ham (6) qoida yordamida aniqlanadi.

Misol №16.

$$x = 876_{10}; [x]_{kyuu}^m = 00.876, \quad \alpha = 9;$$

$$x = -876_{10}; [x]_{kyuu}^m = 11.123 + 001 = 11.124, \quad \alpha = 9;$$

$$x = 676_8; [x]_{kyuu}^m = 00.676, \quad \alpha = 7;$$

$$x = -676_8; [x]_{kyuu}^m = 11.102 + 001 = 11.103, \quad \alpha = 7;$$

$$x = 104_5; [x]_{kyuu}^m = 00.104, \quad \alpha = 4;$$

$$x = -104_5; [x]_{kyuu}^m = 11.340 + 001 = 11.341, \quad \alpha = 4;$$

$$x = 112_3; [x]_{kyuu}^m = 00.112, \quad \alpha = 2;$$

$$x = -112_3; [x]_{kyuu}^m = 11.110 + 001 = 11.111, \quad \alpha = 2;$$

Agar x ikkili kasr son bo'lsa, uning modifikasiyalashgan qo'shimcha kodi

$$[x]_{kyu}^m = \begin{cases} 00.x_1x_2...x_n, a_1a_2...a_m, & \text{agar } x \geq 0 \\ 11.\bar{x}_1\bar{x}_2...\bar{x}_n, \frac{\bar{a}_1\bar{a}_2...\bar{a}_m}{m} + \frac{0.00...1}{m}, & \text{agar } x < 0 \end{cases} \quad (7)$$

aniqlanadi. Bu yerda $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \bar{a}_i = \alpha - a_i, \alpha = 1$

Misol №17.

$$x = 1011,101, [x]_{kyu}^m = 00.1011,101;$$

$$x = -101,011, [x]_{kyu}^m = 11.010,100 + 0,001 = 11.010,101;$$

Agar $\bar{x}_i = \alpha - x_i, \bar{a}_i = \alpha - a_i$ da $\alpha = 2, \alpha = 4, \alpha = 7, \alpha = 9$ deb olinsa, u holda mos ravishda x kasr sonning 3 lik, 5 lik, 8 lik va 10 lik sanoq sistemalaridagi modifiksiyalashgan qo'shimcha kodlari ham (7) qoida yordamida aniqlanadi[4-6].

1.2. Sonlarni qo'zg'almas vergulli shaklda tasvirlash.

Ikkili-o'nli sanoq sistemasida arifmetik amallarning bajarilishi

8421 kodida arifmetik amallarning bajarilishi.

Ikkili-o'nli sanoq sistemasi EHMda sonlarni ifodalashda va ular ustida arifmetik amallar bajarishda keng qo'llaniladi. Ikkili-o'nli sanoq sistemasida arifmetik amallarni bajarish usuli ikkili arifmetika qoidalariga asoslansada, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

8421 kodida arifmetik amallarning bajarilishi. Ushbu koddan foydalanib, tetradalar yordamida o'nli sonlarni tabiiy pozision ifodalash mumkinligini hisobga olgan holda, o'nli raqamlarni qo'shish masalasi quyidagicha ikkita bosqichda hal etiladi.

Birinchi bosqichda o'nli raqamlarning ikkili kodlari ikkili sanoq sistemasi qoidalariga asosan jamlanadi. Ikkinchi bosqichda natijaga tuzatishlar kiritiladi. Bunda uchta hol ro'y berishi mumkin:

1. Birinchi bosqich natijasi 10 dan kichik. Natija to'rtta ikkili xonalar orqali ifodalanib, katta o'nli xonaga ko'chirish qiymati signali shakllanmaydi. Natijaga tuzatish kiritish talab qilinmaydi. Masalan,

$$\begin{array}{r}
 4+5=9 \quad 0100 \\
 + \\
 \hline
 0101 \\
 1001
 \end{array}$$

Hamisha: 0000 1001.

2. Birinchi bosqich natijasi 10 dan 15 gacha oraliqda. Natija o'nli sanoq sistemasi asosidan katta, demak, yig'indini to'g'ri o'kish uchun olingan kodga tuzatish kiritish lozim, ya'ni ko'chirish qiymati bo'lgan birni qo'shni katta tetradaga yozib, asosiy tetradadan o'nni ayirish lozim. Masalan,

$$\begin{array}{r}
 5+6=11 \quad 0101 \\
 + \\
 \hline
 0110 \\
 1011
 \end{array}$$

Tuzatish kiritilgandan so'ng natija quyidagicha bo'ladi:

$$0001 \ 0001|$$

3. Birinchi bosqich natijasi 16 dan 19 gacha oraliqda. Bu holda ko'chirish qiymati bo'lgan birni qo'shni katta tetradaga yozish lozim. Lekin bunda asosiy tetradadagi son 10 ga kamayishi o'rniga birdaniga 16 ga kamayadi. Demak, natijani tuzatish uchun unga 6 ni qo'shish kerak. Masalan,

$$\begin{array}{r}
 9+8=17 \quad 1001 \\
 + \\
 \hline
 1000 \\
 1 \ 0001
 \end{array}$$

Tuzatish kiritilgandan so'ng, quyidagini olamiz: 0001 0111 Shuni aytish lozimki, ikkinchi holda tuzatish uchinchi holdagidek amalga oshirilishi mumkin, chunki 10 sonini ayirishni uning qo'shimcha kodini, ya'ni 6 ni qo'shish bilan almashtirish mumkin.

Misol. $[X_1]_{10}=4097$ va $[X_2]_{10}=5445$ sonlarini 8421 kodda qo'shish talab etilsin:

$$\begin{array}{r}
0100 \quad 0000 \quad 1001 \quad 0111 \\
+ \\
0101 \quad 0100 \quad 0100 \quad 0101 \\
\hline
1001 \quad 0100 \quad 1101 \quad 1100 \\
+ \\
0000 \quad 0000 \quad 0110 \quad 0110 \\
\hline
1001 \quad 0101 \quad 0100 \quad 0010
\end{array}$$

Yakuniy natija $[X_3]_{10}=9542$

8421 kodida ko'paytirish va bo'lish amallarini bajarish aytarlicha qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki ko'paytirish aslida ko'payuvchi modulini ko'p marta qo'shish bo'lsa, bo'lish bo'linuvchi modulidan bo'luvchi modulini ko'p marta ayirishdan iboratdir.

6.2 8421+3 kodida arifmetik amallarning bajarilishi.

Ushbu kodda o'nli raqamlarni qo'shish ikkita bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o'nli raqamlarning ikkili kodlari ikkili sanoq sistemasi qoidalariga asosan jamlanadi.

Ikkinchi bosqichda natijaga tuzatishlar kiritiladi.

Bunda ikkita hol ro'y berishi mumkin: Birinchi bosqich natijasi 10 dan kichik va yig'indi 3 ta ortig'i bilan emas, balki 6 ta ortig'i bilan hosil bo'ladi. Haqiqatan ham: $x_{1i}+3+x_{2i}+3=x_{3i}+6$

Yakuniy yig'indini olish uchun dastlabki natijadan 3 ni (ikkili sanoq sistemasida) ayirish lozim.

Masalan:

$$\begin{array}{r}
2+6=8 \\
\begin{array}{r}
0101 \\
+ \\
1001 \\
\hline
1110 \\
- \\
\hline
0011 - \\
1011
\end{array}
\end{array}$$

2. Birinchi bosqich natijasi 10 dan katta va katta o'nli xonaga ko'chirish qiymati signali shakllanadi. Yig'indi 6 ta birlikki kam holda hosil bo'ladi. Demak, yakuniy yig'indini olish uchun dastlabki natijaga 3 ni (ikkili sanoq sistemasida) qo'shish lozim.

Masalan:

$$\begin{array}{r}
 4+7=11 \quad \begin{array}{r} 0111 \\ + \\ \hline 1010 \end{array} \\
 \\
 1\ 0001 \quad \begin{array}{r} + \\ 0011 \text{ тузатиш} \\ 0100 \\ \hline 1 \end{array}
 \end{array}$$

Misol. $X_1=3542$ va $X_2=1476$ sonlarni bir-biriga qo'shish talab etilsin. Birinchi bosqich quyidagini beradi:

$$\begin{array}{r}
 0110 \quad 1000 \quad 0111 \quad 0101 \\
 + \\
 0100 \quad 0111 \quad 1010 \quad 1001 \\
 \hline
 1011 \quad 0000 \quad 0001 \quad 1110 \\
 (0) \quad (1) (1) (0)
 \end{array}$$

Qavs ichidagi raqamlar o'ng tarafdagi tetradadan ko'chirish qiymati shakllanganligini ko'rsatadi. Ikkinchi bosqich natijasi quyidagicha:

$$\begin{array}{r}
 1011 \quad 0000 \quad 0001 \quad 1110 \\
 + \\
 (-11) \quad (+11) \quad (+11) \quad (-11) \\
 \hline
 1000 \quad 0011 \quad 0100 \quad 1011
 \end{array}$$


Bu natija $8421+3$ kodida 5018 ni beradi.

2- BOB. EHM DA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISHDA SONLARNI KODLASH QOIDALARI

3-BOB. SONLARNI KODLASH QOIDALARI ASOSIDA IFODALOVCHI DASTURIY TA'MINOT

3.1. Dasturiy ta'minotning tasnifi


1. Dasturiy kompleks funksional va amaliy modullardan tashkil topgan. Uni sxematik ravishda 3 ta qismlarga bo'lamiz. (3.1-rasm);



3.1-rasm.Dasturiy kompleksning sxematik ko'rinishi.

Dasturiy kompleks 1ta boshqaruvchi va 6 ta boshqariluvchi modullardan iborat.

Unit1. Dasturning asosiy moduli (Main) boshqarish va o'zaro munosabatni ta'minlaydi.



3.2.--rasm . Asosiy modul va boshqariluvchi dastur modullarining o'zaro aloqasi.

Kodlash-dasturning asosiy formasi

Unit2 –to'g'ri kod haqida ma'lumotni hosil qiladi.

Unit3 - teskari kod haqida ma'lumotni hosil qiladi.

Unit4 –qo'shimcha kod haqida ma'lumotni hosil qiladi.

Unit5 – madifikatsiyalangan kodlash haqida ma'lumotni hosil qiladi.

Unit6 - dastur haiqda ma'lumotni hosil qiladi.


Operation.exe – EHMda arifmetik amallarni bajaruvchi dastur.

BCD.exe – Dekodlashtirish algoritmi buyicha

Asosiy modul komponentalarining tavsifi. Vizual komponentalar.

TForm1 = class(TForm) - Dasturning asosiy formasi;

ComboBox1: TComboBox, ComboBox2: TComboBox – ComboBox komponenti. Dasturda quydagi vazifalarni bajaradi:



ComboBox1

ComboBox2

Edit1: TEdit- kodlanadigan sonni kiritish uchun xizmat qiladi.

Memol: ko'p qatorli satrli ma'lumotlarni chiqarish uchun qo'llaniladi.
Ildizlarni chop etish uchun qo'llaniladi.

SpeedButton1: TSpeedButton-  - tanlangan sanoq sistenasiga mos kodlanadigan itasodifiy sonni hosil qiladi.

Hisoblash: TSpeedButton-  Hisoblash - tanlangan sonni kerakli kodlashtirishini amalgam oshiradi.

Tozalash: TSpeedButton-  Tozalash - olingan natijalarni uchiradi (natija oynasini tozalaydi).

procedure Dekodlashtirish1Click(Sender: TObject) - qushimcha **BCD.exe** dekodlashtirish daturini ishga tushiradi.

procedure EHMdaarifmatikamallar1Click(Sender: TObject)- qushimcha **Operations.exe** EHM da arifmetik amallarni bajaruvchi dasturni dasturni ishga tushitadi.

Label1, Label2, Label3, Label4, Label5: TLabel- Lable komponentlari yozuvlarni tasvirlash uchun xizmat qiladi.

MainMenu1: TMainMenu-  - minyu satri yuqoridagi imkoniyatlardan tashqari yana bir qator qushimcha imkonyatlardan foydalanish imkonini beradi.

WebBrowser1: TWebBrowser – bu komponent orqali bizga “data.html” ilovasidagi ma'lumotni dastur oynasida tasvirlash imkonini beradi.

Ushbu dastur bitta modul – asosiy kodlash.pas modulidan tashkil topgan bo'lib unda dasturning interfeysini ta'minlaydigan hamda algoritm realizatsiyasi joylashgan.

unit kodlash;

interface

uses

Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms, Dialogs, Buttons, StdCtrls, XPMAN, OleCtrls, Menus, SHDocVw;

Bu modulda dasturning asosiy formasi yani **Form1: TForm1** ning kodlari joylashgan bo'lib unig tuzilishi quyidagicha:

```
TForm1 = class(TForm)
    ComboBox1: TComboBox;
    ComboBox2: TComboBox;
    Edit1: TEdit;
    Label1: TLabel;
    Label2: TLabel;
    Label3: TLabel;
    Label4: TLabel;
    Label5: TLabel;
    Tozalash: TSpeedButton;
    Hisoblash: TSpeedButton;
    SpeedButton1: TSpeedButton;
    XPManifest1: TXPManifest;
    MainMenu1: TMainMenu;
    Fayil1: TMenuItem;
    Qushimcha1: TMenuItem;
    Yordam1: TMenuItem;
    Muallif1: TMenuItem;
    Dasturhaqida1: TMenuItem;
    Dekodlashtrish1: TMenuItem;
    ekshirish1: TMenuItem;
    Hisoblash1: TMenuItem;
    ozalash1: TMenuItem;
    N1: TMenuItem;
    Chiqish1: TMenuItem;
```

```

WebBrowser1: TWebBrowser;
Kodlaashtirishqoidalari1: TMenuItem;
